

SHAXS XARAKTERINING PSIXOLOGIYADA O‘RGANILISHI

Karimova Xurshida Yusupboyevna

Xorazm viloyati Shovot tumani 25-maktab psixologi

Aliyeva Marxoba Ollaberganovna

Xorazm viloyati Shovot tumani 42-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada shaxs xarakterining mohiyati, uning psixologiyada o‘rganilishi hamda shakllanish omillari yoritiladi. Shuningdek, xarakter xususiyatlarining inson xulq-atvoriga ta’siri va uni tarbiyalash masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: shaxs, xarakter, psixologiya, xulq-atvor, temperament, tarbiya, ijtimoiy muhit, shaxs rivoji, individual xususiyat

KIRISH

Xarakter — bu insonning atrof-muhitga, odamlar va o‘ziga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi barqaror xulq-atvor xususiyatlari yig‘indisidir. Ya’ni, inson qanday fikrlaydi, qanday qaror qabul qiladi va boshqalar bilan qanday munosabatda bo‘ladi — bularning barchasi uning xarakterini ko‘rsatadi.

Oddiy qilib aytganda, xarakter — bu insonning “qanday odam” ekanligini belgilab beruvchi ichki sifatlaridir. Xarakter tug‘ma bo‘lmaydi, u hayot davomida shakllanadi. Bu jarayonda oila, tarbiya, maktab, do‘stlar va jamiyat katta rol o‘ynaydi. Masalan, mehribon muhitda ulg‘aygan bola odatda ochiqko‘ngil va ijobiy xarakterga ega bo‘ladi.

Xarakter insonning xulq-atvorida namoyon bo‘ladi. U quyidagi xususiyatlar orqali ko‘rinadi:

- odamlar bilan muomala qilishida
- muammolarga munosabatida
- qaror qabul qilishida
- hissiyotlarini boshqarishida

Xarakterning ijobiy va salbiy tomonlari bo‘lishi mumkin. Masalan:

- ijobiy: halollik, sabr-toqat, mehribonlik
- salbiy: jahldorlik, beparvolik, yolg‘onchilik

Xarakter — bu insonning xatti-harakatlarini boshqaruvchi va uning shaxs sifatida qanday ekanligini belgilovchi muhim psixologik xususiyatdir.

Shaxs psixologiyasida xarakter tushunchasi muhim o‘rin egallaydi.

Xarakter — bu insonning atrof-muhitga, jamiyatga va o'ziga bo'lgan munosabatini ifodalovchi barqaror xulq-atvor xususiyatlari majmuidir. U insonning qanday fikrlashi, qanday harakat qilishi va boshqalar bilan qanday munosabatda bo'lishini belgilaydi. Psixologiyada xarakter shaxsning muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganiladi. Har bir insonning xarakteri o'ziga xos bo'lib, u tug'ma emas, balki hayot davomida shakllanadi. Bu jarayonda oila, maktab, jamiyat va tarbiya muhim rol o'ynaydi.

Xarakterning shakllanishida bolalik davri alohida ahamiyatga ega. Bola kichik yoshdan boshlab atrofidagi insonlardan o'rnak oladi. Ota-onaning munosabati, tarbiya usullari va oiladagi muhit bolaning xarakteriga bevosita ta'sir qiladi.

Psixologiyada xarakter xususiyatlari turli guruhlarga ajratiladi. Masalan, ijobiy xususiyatlarga halollik, mehribonlik, sabr-toqat kirs, salbiy xususiyatlarga esa yolg'onchilik, jahldorlik va beparvolik kiradi. Biroq bu xususiyatlar o'zgarmas emas, ular tarbiya va o'z ustida ishlash orqali o'zgarishi mumkin.

Xarakter temperament bilan chambarchas bog'liq. Temperament insonning tug'ma xususiyati bo'lsa, xarakter esa ijtimoiy tajriba asosida shakllanadi. Shu sababli bir xil temperamentga ega bo'lgan insonlarda ham xarakter turlicha bo'lishi mumkin.

Shaxsning xarakteri uning xulq-atvorida namoyon bo'ladi. Insonning qaror qabul qilishi, muammolarni hal qilishi va boshqalar bilan muloqoti uning xarakteriga bog'liq. Shu sababli xarakter inson hayotida muhim rol o'ynaydi. Xarakterni o'rganishda psixologlar turli metodlardan foydalanadi. Kuzatish, suhbat, testlar va psixologik tahlil orqali insonning xarakter xususiyatlari aniqlanadi. Bu esa shaxs bilan ishlashda to'g'ri yondashuvni tanlashga yordam beradi.

Tarbiya jarayonida xarakter shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Ota-ona va o'qituvchilar bolada ijobiy sifatlarni rivojlantirishga e'tibor qaratishi kerak. Rag'batlantirish, namuna ko'rsatish va tushuntirish orqali bolada ijobiy xarakter shakllanadi.

Xarakter borasidagi ta'limotlar tarixi uzoq o'tmishga borib tarqaladi. Xususan, Arastu va Aflotun kishi xarakterini basharasiga qarab aniqlashni taklif qilgan edilar. Ularning xarakterologiyasi asosi qanchalik sodda bo'lsa, shunchalik g'aroyib faraz yotardi. Kishining tashqi ko'rinishida qandaydir hayvon bilan o'xshashlik belgisini topish tavsiya qilinardi, so'ngra esa uning xarakterini ana shu hayvonning xarakteri bilan aynan bir xil deb qarash kerak edi. Jumladan, Arastuning aytishi bo'yicha, buqaniki singari yo'g'on burun ishyoqmaslikni bildiradi, chuchqanikiga o'xshash teshiklari katta-katta keng burun ahmoqlikni, arslonnikabi kabi burun mag'rurlikni, echkilar, g'ylar, va qyonlarniki singari junining mayinligi qo'rqqoqlikni, sherlar va yovvoyi chuchqalarniki kabi junning dag'alligi botirlikni anglatadi.

Lafaterning fikriga ko'ra, Gyotening geniyliigi haqida eng ko'p darajada uning, "burni dalolat beradiki, u Gyote pozisiyasining "mahsuldorligini, mazmuni va

muhabbatini - qayd etadi". Lafaterning o'limidan keyin ko'p o'tmay paydo bo'lgan yangi xarakterologik ta'limot frenologiya degan nom oldi.

Frenologiya nemis vrachi Frans Gallning nomi bilan boqlangandir. Gall ta'limotining asosida xarakterning barcha xususiyatlari bosh miya yarim sharlarida o'zlarining qat'iy ixtisoslashgan markazlarga ega degan tasdiq yotadi. Bu fazilatlarining rivojlanish darajasi miyaning tegishli qismlari kattaligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Gallning maslagiga ko'ra, bosh suyaklari miyaning qavariq va chuqurcha joylariga aniq mos kelganligi uchun ham, uning ruhiy belgilarini aniq aytib berish uchun kishining bosh suyagiga bir nazar tashlash yoki shunchaki boshning "Bo'rtik joylarini" ushlab ko'rish aftidan yetarli bo'lsa kerak.

Bu ta'limotda umuman miya yarim sharining tuzilishi shaxs xususiyatlariga bog'liq bo'ladi, degan to'g'ri boshlang'ich fikrdan tashqari barchasi nihoyat darajada noto'g'ridir. Organizmning nasliy xususiyatlari xarakter xususiyatlarining paydo bo'lishidagi shartlardan biridir. Xarakter xususiyatlari irsiyatning biologik qonuniyatlari bilan emas, balki ijtimoiy qonuniyatlari bilan belgilanadi (egizaklar). Egizaklar temperament xususiyatlari jihatdan o'xshasalar ham xarakter xislatlari bir-biridan farq qiladi. Xarakterning har bir xususiyati shaxs munosabatlari bilan bog'liqdir. Lekin, shaxs munosabatlari o'z navbatida ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Kishining xarakteri tug'ma, doimiy va o'zgarib boradigan narsa emas. Hech bir bola mehnatsevar yoki dangasa, rostgo'y yoki yolg'onchi, qo'rqqoq yoki jasur bo'lib tug'ilmaydi. Har bir odamning xarakteri, temperamenti asosida, ijtimoiy muhit ta'siri bilan, tarbiya, amaliy faoliyat jarayonida va kishining o'z-o'zini tarbiyalashi bilan taraqqiy qilib, o'zgarib boradi. Xarakterning taraqqiyoti kishining irodasi, aql-idroki va hissiyotlarining rivojlanib borishi bilan mustahkam bog'liqdir.

Psixologiya fanida xarakterga turlicha ta'rif berilishiga qaramay, uning asosiy belgilari ta'kidlanganligi bilan bir-biriga muvofiq tushadi. Masalan, shaxs xulqining tipik usullar bilan bog'liq faoliyat muomala va munosabatda namoyon bo'luvchi, mujassamlanuvchi uning barqaror xususiyatlari majmuasi xarakter deyiladi. Shaxsning jamiyatga nisbatan munosabatlari uning asosiy belgisi hisoblanadi.

Xarakter deganda mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan, faoliyat usullarida namoyon bo'ladigan, shaxsning turli sharoitlarga munosabati bilan belgilanadigan individual psixologik xususiyatlari yig'indisi tushuniladi. Xarakter xususiyatlarining namoyon bo'lishi har bir tipik vaziyat, hissiy kechinmalarning individual o'ziga xos xususiyati shaxs munosabatlariga bog'liq. Xarakterning intellektual, hissiy va irodaviy xislatlarini ajratish mumkin. Xarakter deganda shaxsda muhit va tarbiya ta'sirida tarkib topgan va uning irodaviy faoliyatida, atrofdagi olamga o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan individual xususiyatlarni tushunamiz. Xarakterning juda ko'p xususiyatlari odamning ish harakatlarini belgilovchi chuqur va faol moyillik hisoblanadi. Mana shu moyilliklarda xarakter xislatlarining undovchilik

kuchi namoyon bo'ladi. Odam xarakter xislatlarining ana shunday undovchilik kuchi tufayli ko'pincha ob'ektiv sharoitlarga zid ish qiladi va mutlaqo maqsadga nomuvofiq harakat usullarini qo'llaydi.

Shaxs harakatlarining sifati va ularning oqilona usullari insonning irodasi, hissiyoti, diqqati, aqliy sifatlariga yoki psixik jarayonlarning individual xususiyatlariga bog'liqdir. Chunonchi, mehnatda ko'zga tashlanadigan tirishqoqlik, puxtalik mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni aks ettirishga emas, balki boshqa omillarga: diqqatning to'planishiga; harakatlarning maqsadga yo'nalganligiga; irodaviy zo'r berishga; usullar mahsuldorligiga; aqlning ishtirokiga bog'liq xisoblanadi. Xarakterning psixologik va fiziologik sabablari haqida faqat taxminiy fikrlar, xulosalar mavjud. Kishi temperamenti uning xakteri tarkibiga kiradi, shu sababli ham xakterning fiziologik asosi asab tizimining tipidan iborat.

Xarakter xislatlari shaxsning qiyin hosil qilinadigan va mustahkamlanib qoladigan xususiyatlari bo'lganligi tufayli, xakterning fiziologik asosi ham individual hayot jarayonida asab tizimining o'zgargan xususiyatlaridan iborat. hayvon asab faoliyatining tug'ma konstitutsion turi genotip. Lekin hayvon tug'ilganidan keyin tashqi sharoitlarning g'oyat xilma-xil taassurotlariga duch keladi va bunga muayyan faoliyat orqali muqarrar javob berishi lozim bo'ladiki, ko'pincha bu faoliyatlar mustahkamlanib, butun hayoti davomida saqlanib qoladi. Shu sababli hayvonning batamom tarkib topgan asab faoliyati tipga oid belgilardan tashqari muhit ta'siri ostida hosil bo'lgan o'zgarishlarning qotishmasi-fenotip xakteridir. Dinamik stereotip shaxsdagi mustahkam odat bo'lib qolgan xususiyatlarning, jumladan, xakter xislatlarining ham nervfiziologik asosidir. Xakterning nerv-fiziologik asosini tushunish uchun I.P.Pavlovning ikkinchi signal tizimi haqidagi ta'limoti katta ahamiyatga egadir. Ikkinchi signal tizimi nutq va tafakkurning fiziologik asosi bo'lish bilan birga, kishi xulqini ham idora qiladi. Xakterning fiziologik asosi xakterning mazmunini tashkil qiladigan sifatlari, chunonchi, ijtimoiy maslak, mardlik, o'z burchiga sadoqatli bo'lishlarini o'z ichiga olmaydi va ololmaydi ham, albatta xakter psixologiyasining mazmuni o'zining kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy hodisadir. Xakterning mazmunini tashkil qilgan tomonlarini yoritilishi tufayli, psixologiya ijtimoiy fanlar qatoriga kiradi.

Xakter xislatlari kelib chiqishining muhim fiziologik sharoitlaridan biri - xakter xususiyatlarining fiziologik hamda psixologik jihatdan ifodalanishi o'rtasida o'xshashlik bo'yicha taxminiy xulosa chiqarishdir. Ma'lumki, I.P.Pavlov ilmiy maktabi materiallarida e'tirof etilishicha, laboratoriya sharoitida ovqatlanish orqali, shuningdek, teriga elektr toki bilan ta'sir qilish tufayli mustahkamlashda aynan bir hayvonda bir xil shartli qo'zg'ovchiga javoban ikki xil dinamik stereotipni hosil qilish mumkin. Xakter stereotiplar va so'lak ajralishidan iborat ijobiy va tormozlanish shartli reaksiyalari bilan javob qaytaradi. Teriga elektr toki bilan ta'sir qilish sharoitda esa

qo'zg'ovchilarning o'ziga mudofaa harakatlari stereotiplari reaksiyasi bilan javob beradi. Bu hodisalar negizida yotgan fiziologik mexanizm ko'chirish mexanizmi deyiladi. Ko'chirish mexanizmining mohiyati shuki, sharoitga bog'liq tarzda markaziy nerv sistemasida har xil funksional holat paydo bo'ladi, chunonchi, ovqatlanishning markazlarida kuchli qo'zg'alish yuzaga keladi va bunda ovqatlanish bilan bog'liq dominanta tug'iladi. Teriga elektr toki bilan ta'sir qilishda mudofaa bilan bog'liq harakat markazlari kuchli qo'zg'alish tufayli muhofaza (mudofaa) dominantasi vujudga keladi.

Xarakter xislatlarining dinamik stereotiplarga bog'liq nerv tizimining shartli reflektor funksional holati shaxsning sharoitiga nisbatan turlicha munosabatiga bog'liqdir. Masalan, tajribaga nisbatan tekshiriluvchining munosabati o'zgartirilsa, unda nerv jarayonlarining qo'zg'aluvchanligi, harakatchanligi, to'xtalishi kuchayadi, demak nerv tizimining funksional holati o'zgaradi. Shunday qilib, xarakter xislatlarining asosi ko'chirish mexanizmi insonlarda hayvonlarnikidan keskin tafovutlanadi, chunki unda ikkinchi signal tizimi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsning xarakteri tuzilishi turli xususiyatlarning tasodifiy yig'indisidan iborat emas, balki o'zaro bir-biriga bog'liq, hatto tobe yaxlit tizimdan tarkib topadi. Xarakter xislatlarining muayyan qismidan xabardor bo'lishlik notanishlarni tashxis qilish imkoniyatini yaratadi. Misol uchun, shaxsning shuhratparastligi ma'lum bo'lsa, uning dili (ko'ngli) qoraligi yuzasidan taxmin qilish mumkin, yoki inson kamtar, mo'min, yuvosh xususiyatli bo'lsa, albatta u ko'ngilchan ekanligi ko'nglimizga keladi. Har bir kishi ma'lum yoshdan boshlab o'z xarakteri va uning sifatleri uchun o'zi javobgardir o'z xarakterini tarbiyalashda kishi avvalo yaxshi fazilatlarini ko'zda tutmog'i lozim. O'z kamchiliklariga iqror bo'lish kamchiliklarini yo'qotishga boshlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, shaxs xarakteri psixologiyada chuqur o'rganiladigan muhim tushunchalardan biridir. U insonning hayotiy yo'li, xulqi va munosabatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri tarbiya va ongli yondashuv orqali ijobiy xarakter xususiyatlarini shakllantirish mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Гамезо М.В, Домашенко И.А Атлас по психологии М; «Просвещение» 1986г
2. Davletshin M.G Umumiy psixologiya T-2002 y
3. Джемс В. Психология.- М., 1991
4. Леонгард К, Акцентуированные личности. — Киев: Вища школа, 1989. 6. G'oziev E.G' Umumiy psixologiya 1-2 kitob T-2002 y
5. Ziyo.net